

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

NIGMATJONOVA NOZIMA ULMASJONOVNA

QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI RAQAMLASHTIRISH USULLARI ASOSIDA
OSHIRISH YO‘LLARI

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
economic sciences**

Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna Qurilish sanoati korxonalari faoliyati samaradorligini raqamlashtirish usullari asosida oshirish yo‘llari.....	3
Нигматжанова Нозима Улмасжановна Пути повышения эффективности деятельности предприятий строительной отрасли на основе методов цифровизации.....	27
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna Approaches to enhancing the operational efficiency of construction industry enterprises through digitalization methods.....	53
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	57

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

NIGMATJONOVA NOZIMA ULMASJONOVNA

QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI RAQAMLASHTIRISH USULLARI ASOSIDA
OSHIRISH YO‘LLARI

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida **B2026.1.PhD/Iqt5655** raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.taqu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hasanov Tohir Abdurashidovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Iskandarov Erkin Buriyevich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori(Phd), dotsent

Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2026.09.01.I.04.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yangishahar ko‘chasi 9A-uy. Tel.: (+99855 508-02-85, E-mail: devon@taqu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Yangishahar ko‘chasi 9A-uy. Tel.: (+99855 508-02-95, devon@taqu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi ___ -raqamli reestr bayonnomasi).

A.M. Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Metyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

N.A. Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoati korxonalarida raqamli qurilish texnologiyalari loyiha-qurilish-ekspluatatsiya jarayonlarida real vaqt monitoringi, resurslardan samarali foydalanish hamda xarajat va muddatlarni qisqartirish kabi amaliy natijalar berayotgani uchun keng joriy etilmoqda. Bugungi kunda global iqtisodiy tendensiyalarga ko'ra, jahon qurilish bozori hajmi oshib bormoqda, 2025-yilda bozor hajmi 16,45 trln dollar atrofida baholanib, 2026-yilda 17,26 trln dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Qurilish texnologiyalariga investitsiyalar ham faollashib, AEC (Architecture-Engineering-Construction) texnologiyalariga 2020-2022 yillarda jami taxminan 50 mlrd dollari miqdorida sarmoya yo'naltirilgani qayd etiladi. 2024-yilda esa ConTech yo'nalishidagi venchur investitsiyalar 2,265 mlrd dollarga yetgani kuzatiladi. Shuningdek, "aqlli shaharlar" yo'nalishi qurilish bozorining eng tez kengayayotgan segmentlaridan biri bo'lib, 2025-yilda smart cities bozori 1,68 trln dollar deb baholanib, 2030-yilga kelib, 4,76 trln dollarga yetishi kutilmoqda. Energiya samarador va "yashil qurilish" yo'nalishlari ham yuqori o'sish sur'atiga ega, global "Green building" bozori 2025-yilda 642,19 mlrd dollardan 2026-yilda 702,54 mlrd dollarga ko'tarilishi 9,4% ga o'sishi prognoz qilinmoqda.¹

Jahonda qurilish sanoatining investitsion va innovatsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlarda BIM va raqamli egizak texnologiyalarni joriy etish muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida qaralmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ushbu texnologiyalarni qo'llashda dastlab uning tashkiliy asoslarini yaratish, ishtirokchilar hamkorligini yo'lga qo'yish hamda ma'lumotlar almashinuvi va monitoring tizimini shakllantirishga e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda esa, tadqiqotlar: reja-fakt intizomini kuchaytirish, resurslar sarfi va bekor turishlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, tannarx hamda ekspluatatsion xarajatlarni qisqartirish va investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy baholash yondashuvlarini takomillashtirishga yo'naltirilmoqda. Shu bois qurilish va sanoat obyektlarida BIM va raqamli egizakni integratsiyalashgan yechimlar asosida joriy etish, ma'lumotlar shaffofligini ta'minlovchi iqtisodiy monitoring konturini yaratish hamda professional raqamli integrator va konsalting xizmatlarini jalb etish zarurligi asoslanadi.²

Yangi O'zbekistonda qurilish tarmog'i va unga bog'liq sanoat segmentlarining o'sishi raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishni talab etadi. Xususan, so'nggi yillarda qurilish sanoati korxonalari sonining 36,8 mingdan 53 499 taga ko'paygani tarmoqda resurslardan foydalanish intizomi, xarajatlar boshqaruvi va loyiha samaradorligini oshirish masalalarini dolzarblashtiradi.³ "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida "zamonaviy axborot-kommunikatsiya

¹ Global Construction Perspectives, Oxford Economics. Global Construction 2030: A Global Forecast for the Construction Industry to 2030. Oxford, 2023. <https://assets.publishing.service.gov.uk>

² Interoperable Europe Academy. "CDE according to EN ISO 19650 (ma'lumotlarni yagona muhitda yuritish va almashish tamoyillari)". <https://www.researchandmarkets.com/reports/5939618/construction-market-repor>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari www.stat.uz

texnologiyalarini tatbiq etish orqali qurilish sohasida shaffoflik va sifatni oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish” vazifasi belgilangan.⁴ Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda strategik vazifalar doirasida qurilish hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida Raqamli egizak va BIM texnologiyalarini iqtisodiy mezonlar asosida joriy etish, samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PF-6079-son⁵, 2020-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 - yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risi”dagi PF-6119-son⁶, 2022-yil 6-iyulidagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risi”dagi PF-165-son⁷ Farmoni hamda 2022-yil 17-noyabrdagi “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-425-son Qarori⁸ni belgilangan vazifalarni bajarishda hamda sohaga tegishli boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qurilish va sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida ilmiy tadqiqotlar olib brogan ko‘plab xorijiy olimlar: Michael Grieves, Chuck Eastman, Paul Teicholz, Rafael Sacks, Kathleen Liston, Salman Azhar, Bryde, Broquetas, Volm, A. Kiviniemi, Feng Tao va Qinglin Qi kabilarning izlanishlari diqqatga sazovordir.⁹

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni <https://lex.uz>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni <https://lex.uz>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” <https://lex.uz>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulidagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” <https://lex.uz>

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-425-son qarori <https://lex.uz>

⁹ Michael Grieves (AQSh), Raqamli egizak konsepsiyasining asoschisi. U “Raqamli egizak: Manufacturing Excellence through Virtual Factory Replication” asarida texnologiyaning ishlab chiqarish va qurilish jarayonlaridagi samaradorligini tushuntiradi. Uning ishlari raqamli egizak texnologiyasining nazariy asoslarini va amaliy imkoniyatlarini ochib bergan; Chuck Eastman, Paul Teicholz, Rafael Sacks, Kathleen Liston. BIM Handbook (3rd ed.). Wiley, 2018. - BIMning texnologik va iqtisodiy asoslari bo‘yicha eng ko‘p iqtibos qilinadigan qo‘llanma; Salman Azhar. “Building Information Modeling (BIM): Trends, Benefits, Risks, and Challenges for the AEC Industry.” ASCE

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlar: A.B.Proxorov, A.V.Gordeyev, S.V.Vlasov, K.S.Ziatdinov, A.A.Volkov, A.E.Perseva, A.A.Volkova, M.R.Chikina, O.A.Vaxurchev, V.V.Talapov, E.S.Raxmatullinalarning ilmiy ishlarida mazkur tizim atroflicha o'rganilgan hamda samarali boshqaruvni tashkil qilish imkoniyatlari tadqiq etilgan.¹⁰

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham qurilish va sanoat sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ayrim jihatlari o'rhanilgan. Xususan, M.K. Ziyayev, A.N. Djabriyev, I.X. Davletov, R.I. Nurimbetov, N.S. Buronov, D.A. Badirov, S. Ikramov, Z.E. Matniyazov, Sh.Qosimov, G'. Norqulova, B.I. Urmonov, Sh. Ikramov, Sh. Yunusov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.¹¹

- Leadership and Management in Engineering, 2011. BIM foyda/xatarlarini tizimli tahlil qiladi; Bryde, Broquetas, Volm. "The Project Benefits of BIM." International Journal of Project Management, 2013. BIM joriy etilgan loyihalarda xarajat va qayta ishlar kamayishi bo'yicha dalillar.; Rafael Sacks (et al.). BIM Handbook (3rd ed.) bo'lim muallifi sifatida - jarayon samaradorligi va boshqaruv integratsiyasi; A. (Arto) Kiviniemi. "Implementation of BIM in National Construction Policy: The UK Experience." 2016-2020. Davlat buyurtmalarida BIM majburiylik tajribasi; Feng Tao & Qinglin Qi. Raqamli egizak Driven Smart Manufacturing. Elsevier, 2018. raqamli egizakning resurs samaradorligiga ta'siri; McKinsey Global Institute (Barbosa va boshq.). Reinventing Construction: A Route to Higher Productivity. 2017. Qurilishdagi unumdorlik "gap"i va raqamlashtirish yo'nalishlari; Paul Teicholz (et al.). BIM for Facility Managers (IFMA/Wiley). Ekspluatatsiya bosqichida BIM qiymati; Thomas Bock (Germaniya): Qurilish sohasida robotlashtirish va avtomatlashtirish texnologiyalari bo'yicha tadqiqotchi. U qurilish jarayonlarida raqamli egizak texnologiyasining afzalliklarini ko'rsatgan; Klaus Schwab (Shveysariya): "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida raqamli texnologiyalar, jumladan, raqamli egizak texnologiyasining sanoat tarmoqlaridagi transformatsion ta'sirini o'rgangan; Paul Teicholz (Singapur): Qurilish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotchi. U raqamli egizak va BIM texnologiyalari yordamida qurilish sifatini oshirishning usullarini tavsiya qilgan.

¹⁰ А.Б. Прохоров (Россия): "Цифровое строительство: технологии будущего" asarida BIM va raqamli egizak texnologiyalarining Rossiya qurilish sanoatidagi joriy etilishi haqida tahlil qilgan. U raqamli texnologiyalarning loyihalashdan ekspluatatsiyaga qadar barcha bosqichlar uchun ahamiyatini yoritgan; A.B. Гордеев (Россия): "Инновационные технологии в строительстве" asarida qurilish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha metodologiyalarni taklif etgan; Н.К. Абдурахмонов (Казахстан): Qozog'istonda qurilish sohasini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish dasturlarini tadqiq qilgan. BIM texnologiyasining davlat infratuzilmasida joriy etilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan; V.V. Talapov. Texnologiya BIM: сущность и особенности внедрения... DMK-Press, 2023 (2-nashr). - Rus tilidagi asosiy monografiya; A.A.Volkov. Информационные системы и технологии в строительстве. MGSU, 2015. Qurilishda AKT/BIM bo'yicha o'quv qo'llanma; Э.С.Рахматуллина. "BIM-моделирование как элемент в строительстве." 2017. Afzallik/kamchiliklar tahlili; A.Э.Перцева & А.А.Волкова "Особенности внедрения BIM технологий..." Науковедение, 2017. Joriy etish bosqichlari; M.R. Chikina. "BIM технологии как основа бережливого строительства" 2023. Lean Construction bilan bog'liqlik, O.A.Vaxurchev "Управление жизненным циклом объектов капитального строительства..." 2025. LCM va iqtisodiy ko'rsatkichlar; TAdviser Market Review. "BIM-технологии (рынок России)." GOST R/standartlar va bozor ko'lami;

¹¹Зияев М.К., Давлетов И.Х. Совершенствование управления инвестиционно-строительным процессом в условиях углубления рыночных отношений // Инвестиционный потенциал банков: вызовы, возможности и перспективы: Матер. межд. науч.-прак. конф. БФА РУз, 26-27 сентября 2008 г. - Ташкент: Молия!, 2008. С.46-49.// Нуриббетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон.журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017);Buronov N.S. "O'zbekistonda BIM texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021, Buronov N., Fayzullaev I., Adasheva M. "Loyihalashda BIM texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi". American Journal of Education and Learning, 2025 (son/raqam va sahifalar jurnal sahifasida ko'rsatilgan), Matniyazov Z.E., Buronov N.S. "Nega loyiha tashkilotiga BIM texnologiyalari kerak?". Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 2022, Badirov D.A. "Raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishning asosiy jihatlari". Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship, 2025, Qosimov Sh., Norqulova G'. "BIM texnologiyalarining O'zbekiston qurilish bozoridagi istiqbollari". Iqtisodiyot va innovatsiya (maqola sahifasi inlibrary'da), Ikramov Sh. "BIM texnologiyalari bilan loyihalash jarayonlarini tashkil etishda inson omilining o'rni". World Bulletin of Social Sciences, 2024 (maqola sahifasi) va Zenodo nusxasi, Yunusov Shukurulla. "Bino va inshootlarni loyihalashda BIM texnologiyalari va dasturlari" (Zenodo/DOI), "O'zbekistondagi qurilish jarayonlari BIM texnologiyasi asosida amalga oshiriladi" (Qurilish vazirligi xabari asosida). Spot.uz, 2022.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy va uslubiy manba bo'lsa-da, ularda qurilish sanoati korxonalarining raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy qilish hamda integratsiya jarayoni kompleks va tizimli yondashuv asosida yetarlicha o'rganilmagan. Ularning qurilish sanoati korxonalarida Raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari va ularni boshqaruv qarorlariga integratsiya qilishning ilg'or yondashuvlari yetarlicha aniqlanmagan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur dissertatsiya tadqiqoti yo'nalishini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga bilan bog'liqligi. Tadqiqot Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq № FA-A-2022-312 "Qurilish tarmog'ida raqamli transformatsiyani joriy etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2022-2024-yy.) nomli ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarish va iqtisodiy samaradorligini baholashda raqamli egizak va BIM texnologiyalari integratsiyasini qo'llash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish sanoatida innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy mohiyati va ularning samaradorlikka ta'sirini tavsiflovchi nazariy jihatlarni o'rganish;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish;

O'zbekiston qurilish tarmog'ida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning amaldagi holatini tahlil qilish;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etish samaradorligini obyektlar kesimida asosiy ko'rsatkichlar orqali tahlil qilish;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishni takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqish;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etish samaradorligini prognozlashga mo'ljallangan modelni shakllantirish;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha bosqichma-bosqich Yo'l xaritasi va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi qurilish sanoatiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini qurilish sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash sharoitida iqtisodiy samaradorlikni baholash va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va boshqa munosabatlar majmua tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qarorlar, reja-fakt tahlili hamda KPI monitoring, oldin-keyin taqqoslash, ROI va NPV hisoblash, ssenariyli prognozlash va optimallashtirish, empirik kuzatuv, ekspert baholash usullari qoʻllanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli egizak va BIM texnologiyalari dissertatsiyada alohida axborot texnologiyalari sifatida emas, balki ularning oʻzaro integratsiyasi natijasida shakllangan yagona raqamli platforma sifatida talqin etildi va mazkur platforma asosida qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishga yoʻnaltirilgan integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy model taklif etilgan;

qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishni taʼminlovchi texnologik, axborot-iqtisodiy va institutsional darajalarni qamrab oluvchi uch darajali integratsiya modeli ishlab chiqildi hamda uning amaliy qoʻllanilishi loyiha muddati, tannarx va resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash imkonini berishi asoslangan;

raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etish samaradorligini baholash maqsadida KPIlarga asoslangan umumiy iqtisodiy samaradorlik indeksini hisoblash uslubiyoti ishlab chiqildi va ushbu indeks asosida qurilish sanoati korxonalarini uchun “passiv-aktiv” ssenariylar boʻyicha 2025-2030-yillarga moʻljallangan prognoz-optimallashtirish yondashuvi taklif etilgan;

raqamli egizak va BIM texnologiyalarini qurilish sanoatida joriy etishni takomillashtirish maqsadida, 2025-2030-yillarga moʻljallangan bosqichma-bosqich Yoʻl xaritasi ishlab chiqildi va amaliy qoʻllanilishi raqamli transformatsiyani tizimli amalga oshirish, iqtisodiy samaradorlikni barqaror oshirish va investitsion risklarni kamaytirish imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli egizak va BIM texnologiyalarini integratsiyalashga asoslangan iqtisodiy boshqaruv modeli ishlab chiqildi hamda Qurilish sanoati korxonalarini misolida amaliyotga tatbiq etildi;

BIM modeli asosida reja koʻrsatkichlarini shakllantirish va raqamli egizak orqali fakt maʼlumotlarni yigʻish integratsiyasi yoʻlga qoʻyilib, reja-fakt nazorati hamda real vaqt monitoringini amalga oshirish imkonini beruvchi yagona boshqaruv konturi tashkil etildi. Bu jarayon maʼlumotlar shaffofligini oshirish, ogʻishlarni erta aniqlash va boshqaruv qarorlarini tezlashtirishga xizmat qildi;

raqamli egizak va BIMni joriy etish samaradorligini baholash uchun KPI monitoringi, reja-fakt tahlili, “oldin-keyin” taqqoslash hamda ROI/NPV koʻrsatkichlariga tayangan iqtisodiy baholash mexanizmi amaliy qarorlarni iqtisodiy asoslashda qoʻllandi. Natijada, resurslardan foydalanish intizomini kuchaytirish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan boshqaruv yechimlari shakllantirildi;

2030-yilgacha passiv va aktiv ssenariylar asosidagi prognoz-optimallashtirish yondashuvi hamda 2025-2030-yillarga moʻljallangan

bosqichma-bosqich Yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, raqamli transformatsiyani izchil joriy etish va masshtablash bo‘yicha amaliy tavsiyalar asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari, Toshkent shahar qurilish va ishlab chiqarish korxonalarining birlamchi-yakuniy statistik, buxgalteriya hisobotlari asosida shakllantirilgan axborot bazasidan foydalanilgani, tadqiqot natijalari amalda qo‘llanilgani, hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mazkur dissertatsiyada raqamli egizak va BIM texnologiyalari alohida texnologiyalar sifatida emas, balki ularning integratsiyasi asosida shakllangan yagona raqamli platforma sifatida ilmiy jihatdan talqin qilinib, ushbu platforma asosida qurilish obyektlari va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishga yo‘naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy model ishlab chiqilgani. Shuningdek, KPIlarga asoslangan umumiy iqtisodiy samaradorlik indeksini hisoblash uslubiyoti hamda 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan ssenariyli prognoz-optimallashtirish yondashuvi taklif etilib, qurilish sanoatida raqamli transformatsiyani baholash va prognozlashning ilmiy-metodik asoslari rivojlantirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan qurilish sohasida innovatsion texnologiyalar faoliyatini samarali tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni qurilish sanoati korxonalarida samarali joriy qilish tizimini takomillashtirish hamda iqtisodiy tarmoqlarda raqamlashtirish muhitini rivojlantirishda qo‘llanishi mumkinligi, olingan ilmiy xulosalar qurilish sanoati korxonalarini, qurilish jarayonlarini samarali boshqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish siyosatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, strategiyalar va prognoz modellari ishlab chiqishda, shuningdek, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda amaliy qo‘llanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish sanoati korxonalarini faoliyati samaradorligini raqamlashtirish usullari asosida oshirish yo‘llari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli egizak va BIM texnologiyalarini integratsiyalashga asoslangan iqtisodiy boshqaruv modeli bo‘yicha takliflar “ToshuyjoyLITI” AJ tomonidan ilmiy-texnik hamrohlik va metodik kuzatuv asosida, “Emdirsal Inshaat” MCHJ tomonidan bevosita amalga oshirilgan qurilish ishlarida hamda “O‘zqurilish Invest” AJ balansiga tegishli qurilish obyektlarida Arxitektura qurilish integratsiya va innovatsiya markazi ishtirokida amaliyotga tatbiq etildi (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 2-iyundagi 37-06/6141-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada qurilish va ishlab chiqarish jarayonlarini yagona boshqaruv konturi orqali integratsiyalash imkoniyati yaratildi, ma‘lumotlar shaffofligi oshdi va boshqaruv samaradorligi mustahkamlangan;

raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizm asosida BIM modeli va fakt ma'lumotlarning raqamli egizak asosida integratsiyasi yo'lga qo'yilib, "Emdirsal Inshaat" MCHJ va "O'zqurilish Invest" AJ obyektlarida reja-fakt nazorati hamda real vaqt monitoringi amalga oshirildi. Bu jarayon loyiha boshqaruvining samaradorligini oshirish, og'ishlarni erta aniqlash va boshqaruv qarorlarini tezlashtirish imkonini berdi. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 2-iyundagi 37-06/6141-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha vaqt sarfi 25% ga qisqarishiga, jadval og'ishlarini erta aniqlash imkoniyati yaratildi va qurilish ishlari kechikish risklarining sezilarli darajada kamayishiga erishilgan;

raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etish samaradorligini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizm ("oldin-keyin" taqqoslash, ROI va NPV bilan bog'lash, shuningdek, risk va sezgirlik omillarini hisobga olish) "Emdirsal Inshaat" MCHJ va "O'zqurilish Invest" AJ obyektlarida amaliyotda qo'llanildi. Ushbu yondashuv qurilish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va tezkor boshqarish imkonini berib, resurslardan foydalanish intizomini kuchaytirdi. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 2-iyundagi 37-06/6141-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qurilish xarajatlari 15 % ga kamaytirildi va empirik "oldin-keyin" baholash natijalarida iqtisodiy samaradorlikning oshishiga erishilgan;

iqtisodiy samarani o'lchanadigan va verifikatsiya qilinadigan natijaga aylantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm (CDE - yagona ma'lumotlar muhiti, KPI pasportlari va javobgarlik zanjiri) qurilish obyektlari bilan bir qatorda, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonasi - "Bektemir Metall Konstruksiyalari" QK MCHJ ning ishlab chiqarish obyektida sinovdan o'tkazildi. Shuningdek, 2030-yilgacha passiv va aktiv ssenariylar asosidagi prognoz-optimallashtirish yondashuvi hamda 2025-2030-yillarga mo'ljallangan bosqichma-bosqich Yo'l xaritasi ishlab chiqildi va raqamli transformatsiyani tizimli joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 2-iyundagi 37-06/6141-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, energiya sarfi 12 % ga qisqarishi, ish unumdorligi 15 % ga oshishi va boshqaruv intizomining kuchayishi kuzatildi, smeta jarayonlarini avtomatlashtirish, reja-fakt og'ishlarini kamaytirish va ortiqcha xarajatlarni bartaraf etish orqali iqtisodiy samaradorlik oshdi, raqamli egizak va BIM texnologiyalarini iqtisodiy mezonlar asosida tanlash va ularni o'lchanadigan iqtisodiy natija beruvchi investitsion yechim sifatida asoslash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish, shundan 2 ta OAK e'tirof etgan mahalliy va 2 ta xalqaro jurnallarda ilmiy maqola, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflab berilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarining nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy-nazariy mohiyati o'rganildi hamda ularning sanoat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan mazmuni ochib berildi. Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalar qurilish jarayonlarini raqamlashtirish vositasi sifatida emas, balki korxonada faoliyatining iqtisodiy natijalarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida ko'rib chiqildi.

Raqamli egizak va BIM texnologiyalari qurilish sanoati korxonalarida xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda loyiha muddati va tannarxini boshqarishga xizmat qiluvchi iqtisodiy instrumentlar sifatida talqin qilindi. Ushbu texnologiyalarning boshqaruv qarorlarini asoslash, reja-fakt og'ishlarini aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni nazariy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, birinchi bob doirasida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini alohida yechimlar sifatida emas, balki ularning integratsiyasi natijasida shakllanuvchi **yagona raqamli platforma** konsepsiyasi asoslandi. Mazkur platforma BIM orqali shakllantiriladigan reja ma'lumotlari (3D/4D/5D model, muddat va smeta)ni raqamli egizak orqali yig'iladigan fakt ma'lumotlar (real vaqt monitoringi, resurs sarfi, bajarilish holati) bilan CDE (yagona ma'lumotlar muhiti)da birlashtirib, reja-fakt nazorati, KPI monitoringi hamda investitsion baholash (ROI/NPV) uchun uzluksiz axborot oqimini ta'minlaydi. Natijada, boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga tayangan holda iqtisodiy jihatdan asoslash, og'ishlarni erta aniqlash va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari kengayishi nazariy jihatdan asoslab berildi.

Platforma doirasida shakllantirilgan yagona ma'lumotlar bazasi prognozlash va ssenariy modellashtirish imkonini berib, loyiha risklarini oldindan baholashga xizmat qiladi. Natijada, investitsion loyihalarning barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlari takomillashtiriladi. Ushbu yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida qurilish tarmoqlari uchun universal va kengaytiriladigan boshqaruv modeli sifatida qaraladi.



I-rasm. Raqamli egizak va BIM texnologiyalarining salohiyatini oshirishda oʻrni va funksional bogʻliqligi¹²

Tadqiqot jarayonida BIM texnologiyasi: loyihalash, smetani shakllantirish, xarajatlarni baholash va rejalashtirish orqali qurilish jarayonining iqtisodiy asoslarini yaratishga xizmat qiluvchi vosita sifatida, raqamli egizak esa, real vaqt rejimida monitoring, resurslarni boshqarish hamda ekspluatatsiya jarayonlarini optimallashtirishni ta'minlovchi boshqaruv mexanizmi sifatida aks ettirilgan. Ushbu texnologiyalarning integratsiyasi natijasida ma'lumotlar almashinuvi, tahlil va prognozlash jarayonlari yoʻlga qoʻyilib, xarajatlarni optimallashtirish hamda investitsiya boshqaruvini takomillashtirish imkoniyatlarining shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyada raqamli transformatsiyaning iqtisodiy mazmuni va uning korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'siri yoritilib, reja-fakt nazorati, resurslardan samarali foydalanish, real vaqt monitoringi va ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyati asoslab berildi. Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda subyektiv yondashuvlar oʻrnini ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiy tahlil egallab, bu xarajatlarni va muddatlar bo'yicha og'ishlarni erta aniqlash, rejalashtirish aniqligini oshirish hamda korxonalar barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Qurilish sanoatida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy ta'siri: reja-fakt nazorati, resurslardan samarali foydalanish, real vaqt monitoringi, ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash, xarajatlarni prognozlash va optimallashtirish hamda boshqaruv qarorlarini KPI/ROI/NPV ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy asoslash yo'nalishlari orqali namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalishlar xarajatlarning kamayishi, tannarxning qisqarishi, muddat buzilishi riskining pasayishi, operatsion risklarning kamayishi, boshqaruv intizomining kuchayishi va investitsiya samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

1-jadval

Qurilish korxonalarida innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy asoslariga oid ilmiy-nazariy qarashlar¹³

Mualliflar	Ilmiy yondashuv va qarashlar
------------	------------------------------

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹³ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

N.S. Buronov	BIMni qurilish tarmog'ida qo'llash istiqbollari, joriy etishdagi to'siqlar va amaliy zaruratlar tahlil qilinadi, shuningdek, loyihalash jarayonida BIMning iqtisodiy samaradorligini (an'anaviy loyihalash bilan taqqoslash) hisoblash yo'nalishida empirik natijalar keltirilgan. ¹⁴
D.A. Badirov	Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishda raqamlashtirish vositalari, jumladan, BIMdan foydalanish masalalari resurs tejamlorligi va mehnat unumdorligi bilan bog'liq boshqaruv yondashuvlari doirasida yoritilgan. ¹⁵
S. Ikramov	BIM jarayonlarida inson omili, jamoaviy hamkorlik, ma'lumotlar boshqaruvi va tashkiliy masalalarning ahamiyati ochib berilgan. ¹⁶
V.V. Glukhov	BIM va DT texnologiyalarini qurilish industriyasida joriy etish tannarxni 15-20 % gacha kamaytirishi, ishlab chiqarish siklini esa, 25-30 % tezlashtirishini empirik tahlil asosida ko'rsatilgan. ¹⁷
A.P. Gradov	Innovatsion texnologiyalar kapital samaradorligini oshiruvchi iqtisodiy klaster sifatida namoyon bo'lib, raqamli egizak orqali hayotiy sikl qiymatini boshqarish modelini taklif qilingan. ¹⁸
N.A. Mamedov	Qurilish materiallari logistikasida raqamli egizaklar yordamida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy model ishlab chiqilgan. ¹⁹
David Bryde	BIMning iqtisodiy samaradorligi loyihalar smetasi aniqligini oshirishi, kolliziyalarni kamaytirishi va loyiha samaradorligini keskin oshirishi ilmiy tajribalar orqali tasdiqlangan. ²⁰
J. Eastman (AQSh)	BIM va DT integratsiyasi 4D va 5D modellashtirish orqali qurilish muddatlarini qisqartirishi. DT obyektning ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishi yoritilgan. ²¹
Michael Grieves (AQSh) – Digital Twin asoschisi	Digital Twinning iqtisodiy modeli: $\Delta NPV =$ ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish va texnik servisini optimallashtirish, hayotiy sikl bo'yicha foyda o'sishi qayd etilgan. ²²
Singapore BCA Academy	Raqamli qurilish texnologiyalari (DT, BIM, IoT) Smart City tizimida energiya samaradorligini oshiradi, smetaviy intizomni mustahkamlaydi va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishi asoslangan. ²³

Muallif tomonidan O'zbekiston qurilish tarmog'ida raqamli transformatsiyani joriy etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslar tizimli tahlil qilindi. Ushbu tahlilda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va tarmoq boshqaruvini raqamlashtirishning umumiy yo'nalishlarini belgilab berishi, qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish va

¹⁴Buronov N.S. "O'zbekistonda BIM texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari".//ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2021. Buronov N., Fayzullaev I., Adasheva M. "The economic efficiency of BIM technologies in design". "Loyihalashda BIM texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi", 2025 (son/raqam sahifalari jurnal sahifasida ko'rsatilgan). <https://advancedscienti.com/index.php/>

¹⁵Badirov D.A. "Raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishning asosiy jihatlari". // Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship, 2025. <https://usajournals.org/index.php>

¹⁶Ikramov S. "BIM texnologiyalarining O'zbekiston qurilish bozoridagi istiqbollari". //World Bulletin of Social Sciences, 2024 (maqola sahifasi) va Zenodo nusxasi. <https://scholarexpress.net/index.php/>

¹⁷Глухов В.В. Цифровое строительство: экономика и организация. Москва: Инфра-М, 2020. 296 с. <https://www.infra-m.ru/product/tsifrovoe-stroitelstvo>

¹⁸Градов А.П. Экономика инноваций. Санкт-Петербург: Питер, 2019.-384 с. <https://www.piter.com/product/ekonomika-innovatsiy>

¹⁹Mamedov N.A. Smart Construction Systems and Digital Logistics. Baku: ADA Press, 2021. 228 p. <https://lib.ada.edu.az/catalog/smart-construction-systems>

²⁰ Bryde, D., Broquetas, M., Volm, J. (2013). The project benefits of BIM: A systematic review. Journal: Journal of Construction Engineering and Management, Vol. 139(3), pp. 04013012 (1-14). <https://ascelibrary.org/doi/>

²¹ Eastman C., Teicholz P., Sacks R., Liston K. BIM Handbook. Fourth edition. New Jersey: Wiley, 2020. 832 p. <https://www.wiley.com/en-us>

²²Grieves, M. Digital Twin: Manufacturing Excellence through Virtual Factory Replication. 2016. 92 p. <https://www.researchgate.net/publication>

²³ BCA Singapore. Integrated Digital Delivery (IDD) Framework. Singapore, 2018. 118 p. <https://www1.bca.gov.sg/buildsg/idd>

innovatsion rivojlantirishga doir strategik hujjatlar esa, BIM hamda raqamli egizak texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish uchun institutsional sharoit yaratishi asoslandi. Shuningdek, innovatsion rivojlanish bo'yicha strategik hujjatlar va sohaga doir hukumat qarorlari qurilish jarayonlarida axborot tizimlarini joriy etish, ma'lumotlar almashinuvi va raqamli monitoringni yo'lga qo'yishni rag'batlantirishi ko'rsatildi.

Qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar - Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va Singapur tajribasi chuqur o'rganilib, tizimli ravishda umumlashtirildi. Xorijiy amaliyotda mazkur texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, jumladan, raqamli integratsiya markazlari faoliyati, yagona ma'lumotlar muhiti (CDE), KPI asosidagi boshqaruv va iqtisodiy samaradorlikni baholash yondashuvlari tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu davlatlarda BIM va raqamli egizak texnologiyalarini keng joriy etishga xizmat qiluvchi institutsional qo'llab-quvvatlash modellari, normativ talablar va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ularni O'zbekistondagi qurilish tarmog'i sharoitida moslashtirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Xorijiy tajriba tahlili doirasida Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Singapur va Yaponiya amaliyotida BIM hamda raqamli egizak texnologiyalarini joriy etish mexanizmlari va iqtisodiy natijalari umumlashtirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniyada davlat buyurtmalarida BIMni bosqichma-bosqich joriy etish xarajatlar va muddatlarni optimallashtirgan, AQShda BIM-raqamli egizak integratsiyasi operatsion xarajatlarni kamaytirib, reja-fakt og'ishlarini pasaytirgan.

Germaniya va Singapur tajribasida BIM va raqamli egizak texnologiyalarini normativ-huquqiy asoslar hamda yagona raqamli standartlar orqali joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu qurilish jarayonlarida ma'lumotlar uzluksizligini va ishonchliligini ta'minlagan. Xususan, Germaniyada infratuzilma loyihalarida BIM asosida rejalashtirish va raqamli egizak orqali ekspluatatsiya bosqichini boshqarish aktivlar hayotiy sikli davomida xarajatlarni qisqartirishga xizmat qilgan. Singapur va Yaponiya amaliyotida esa real vaqt monitoringi, sensor ma'lumotlari va intellektual tahlil vositalariga asoslangan raqamli egizak modellar qurilish sifatini oshirish, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish hamda investitsiyalarning qaytuvchanligini (ROI) yaxshilashga imkon bergani aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda qurilish sanoati korxonalarida BIM va raqamli egizak texnologiyalarini joriy etishning amaldagi holati tahlil qilindi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri obyektlar kesimida baholandi. Tadqiqot jarayonida ushbu texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, joriy etish jarayonida reja-fakt nazorati, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda xarajatlarni boshqarish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Respublikamiz qurilish sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarish (xizmat) hajmlarining kengayishi, korxonalar sonining ortishi va investitsiyalar hajmining o‘shishi sharoitida resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish samaradorligi hamda tranzaksion xarajatlar dinamikasini tahlil qilish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2015-2024-yillarda qurilish tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi²⁴

Yil	Qurilish ishlari hajmi, trln so‘m	Qurilish korxonalarini soni, mingta	Investitsiyalar hajmi, trln so‘m	Mehnat unumdorligi (1 ishchiga), mln so‘m	Xarajatlar ulushi, %
2015	25685,4	32,0	41548,3	19,8	78,5
2016	29456,4	34,5	48632,7	21,4	77,9
2017	34698,0	36,8	72697,0	26,9	77,2
2018	51156,5	39,5	12778,2	42,5	76,0
2019	71156,5	42,8	19532,9	53,8	75,4
2020	88130,3	45,2	21015,0	67,5	74,9
2021	107492,0	48,6	23995,6	79,6	74,3
2022	130790,9	50,9	26655,2	99,6	73,5
2023	150792,6	52,6	35614,1	100,4	72,8
2024	233832,9	53,5	50756,5	171,9	71,6

Mamlakatimizda 2015-2024-yillarda O‘zbekistonda qurilish ishlari hajmi 25 685,4 trln so‘mdan 233 832,9 trln so‘mga oshib, 810,4% (9,1 baravar)ga o‘tdi. Qurilish korxonalarini soni 32,0 mingdan 53,5 mingtagacha ko‘payib, 67,2% ga ortdi. Investitsiyalar hajmi 41 548,3 trln so‘mdan 50 756,5 trln so‘mga yetib, 22,2% ga o‘tdi. Mehnat unumdorligi (1 ishchiga) 19,8 mln so‘mdan 171,9 mln so‘mga ko‘tarilib, 768,2% (8,7 baravar)ga oshdi. Xarajatlar ulushi esa, 78,5% dan 71,6% gacha pasayib, 6,9 foiz bandga (nisbiy hisobda 8,8%) kamaydi. Mazkur tendensiyalar tarmoq miqyosida o‘shish fonida resurslar va xarajatlarni boshqarishda reja-fakt intizomini kuchaytirish hamda real vaqt monitoringini yo‘lga qo‘yish zarurligini asoslaydi.

Qurilish sanoati korxonalarida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning amaldagi holati obyektlar kesimida o‘rganildi. Tadqiqotda qurilish obyektlari hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo‘llanish holati, joriy etish xarajatlari, tashkiliy moslashuv darajasi, reja-fakt og‘ishlari va resurslardan foydalanish samaradorligi bo‘yicha taqqoslama tahlil amalga oshirildi. Amaliy ma’lumotlar asosida raqamli texnologiyalar joriy etilgan va joriy etilmagan obyektlar ko‘rsatkichlari solishtirilib, xarajatlar boshqaruviga ta’siri aniqlashtirildi.

3-jadval

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
www.stat.uz

**Raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishdan “oldin-keyin”
iqtisodiy ko‘rsatkichlar tafovuti²⁵**

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Joriy etishdan oldin	Joriy etilgandan keyin	O‘zgarish
“Emdirlsal Inshaat” MCHJ (qurilish obyektlari)				
Loyiha muddati	oy	18	14	22 %
Qurilish tannarxi	mlrd so‘m	100,0	85,0	15 %
Reja-fakt og‘ishi	%	13,0	5,0	8,0 p.p.
Mehnat unumdorligi	% (bazaga nisbatan)	100	115	15 %
“O‘zqurilish Invest” AJ (buyurtmachi obyektlari)				
Qurilish tannarxi	mlrd so‘m	120,0	102,0	15 %
Materiallar yo‘qotilishi	%	11,0	5,5	5,5 p.p.
Energiya sarfi	% (bazaga nisbatan)	100	88	12 %
Boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqti	kun	7–10	1–2	5–7 kun qisqarish
“Bektemir Metall Konstruksiyalari” QK MCHJ (ishlab chiqarish)				
Energiya sarfi	% (bazaga nisbatan)	100	88	12 %
Materiallar chiqindisi	%	9,0	4,5	4,5 p.p.
Ishlab chiqarish unumdorligi	% (bazaga nisbatan)	100	115	15 %
Texnologik uzilishlar	%	8,0	3,0	5,0 p.p.

Mazkur jadval ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etish natijasida obyektlar kesimida iqtisodiy ko‘rsatkichlar sezilarli yaxshilangani kuzatildi. Xususan, “Emdirlsal Inshaat” MCHJ qurilish obyektida: loyiha muddati 18 oydan 14 oyga qisqarib, 22,2% ga kamaydi, qurilish tannarxi 100,0 mlrd so‘mdan 85,0 mlrd so‘mga tushib, 15% tejaldi, reja-fakt og‘ishi 13% dan 5% gacha pasayib, 8 foiz bandga (nisbiy hisobda taxminan 61,5%) kamaydi, mehnat unumdorligi esa, bazaga nisbatan 100 dan 115 ga oshib, 15% ga ko‘tarildi. “O‘zqurilish Invest” AJ buyurtmachiligidagi obyektlarda qurilish tannarxi 120,0 mlrd so‘mdan 102,0 mlrd so‘mga kamayib 15% tejaldi, materiallar yo‘qotilishi 11% dan 5,5% gacha pasayib, 5,5 % bandga (ya’ni 50%) qisqardi, energiya sarfi bazaga nisbatan 100 dan 88 ga tushib 12% kamaydi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqti 7-10 kundan 1-2 kungacha qisqarib, 5-7 kunga tezlashdi. “Bektemir Metall Konstruksiyalari” QK MCHJ ishlab chiqarishida: energiya sarfi 12% ga, materiallar chiqindisi 9% dan 4,5% gacha pasayib 4,5 % bandga (ya’ni 50%) ga kamaydi, ishlab chiqarish unumdorligi 15% ga oshdi, texnologik uzilishlar 8% dan 3% gacha pasayib, 5 % bandga (nisbiy hisobda 62,5%) kamaydi. Mazkur natijalar raqamli egizak va BIM texnologiyalari reja-fakt intizomi, resurslar sarfi hamda xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirishini amaliy ko‘rsatkichlar asosida tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqildi.

²⁵Korxonada ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Baholashda reja-fakt tahlili, KPI monitoringi, “oldin-keyin” taqqoslash hamda investitsion samaradorlikni asoslash uchun ROI va NPV ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklif etildi.

4-jadval

Raqamli egizak va BIM texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy baholash usullari²⁶

Baholash usuli	Baholash mazmuni	Asosiy ko‘rsatkichlar	Iqtisodiy natijani aniqlash yo‘nalishi	Qo‘llash sohasi
Reja-fakt tahlili	Rejalashtirilgan va real bajarilgan ko‘rsatkichlarni taqqoslash	Muddat og‘ishi, xarajat og‘ishi, resurs sarfi	Qurilish jarayonida og‘ishlarni erta aniqlash va kamaytirish	Qurilish obyektlari
KPI monitoringi	Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali doimiy nazorat	Loyiha muddati, tannarx, energiya sarfi, ish unumdorligi	Boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish	Qurilish va sanoat korxonalari
“Oldin-keyin” taqqoslash usuli	Joriy etishdan oldingi va keyingi holatni baholash	Xarajatlar, muddat, resurs yo‘qotishlari	Raqamli texnologiyalarning bevosita iqtisodiy ta‘sirini aniqlash	Pilot obyektlar
ROI (Return on Investment)	Joriy etish xarajatlari va olingan iqtisodiy foyda nisbatini baholash	Investitsiya hajmi, iqtisodiy tejash	Raqamli texnologiyalarning investitsion jozibadorligini asoslash	Qurilish loyihalari
